

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNIXALQNI HIMOYALOVCHI
mustahkam qo‘rg‘on

Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini yengillashtiradi, ya‘ni inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi. Har bir fuqaro Konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qiladigan, huquq va erkinliklarini ta‘minlab beradigan, haqiqiy ma‘noda himoyachisi bo‘ladigan Bosh qonun ekanini anglashi lozim. Shuningdek, Konstitutsiyaning har bir moddasini, normalarini bilishi va ongli anglab yetishi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishda asosiy ko‘makchi bo‘lishini tushunishi kerak.

Dunyo konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizimini tartibga solib boradi.

Bu o‘rinda AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Tomas Jeffersonning mulohazasi diqqatimizni tortadi. Uning

taxminicha, har 19 yilda konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida aholining qariyb yarmi yangilanadi va amaldagi Konstitutsiya uning qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi.

Davomi 3-betda



KUN MAVZUSI

YERGA MUNOSABATIMIZ
O‘ZGARMASAOQIBATI QANDAY BO‘LADI,
NIMALARNI KUTISH MUMKIN?COP28
UAE

Qish fasli boshlandi. Odatda sovuq harorat va yog‘ingarchilik bilan kechadigan mavsum yil sayin iliqlashib bormoqda. Kuz oylarida ham yog‘ingarchilik nisbatan kam kuzatildi. Bu sovuqni xush ko‘rmaydiganlar uchun ayni muddaodek. Boshqa tomondan, global iqlim o‘zgarishlari oqibatlari sayyoramiz uchun jiddiy xavfga aylanayotgani tashvishga soladi. Ayniqsa, Orol muammosi sabab Markaziy Osiyoda vaziyat keskinlashib bormoqda. Mintaqada havo harorati oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p. Favqulodda issiq kunlar soni ham ikki karra ortib, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qolgan.



Shunday dolzarb muammolar BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP28) ishtirokchilarini yana bir nuqtada jamladi. Ular joriy yil 30-noyabr — 12-dekabr kunlari Dubay shahrida bo‘lib o‘tayotgan 28-konferensiya doirasidagi Iqlim bo‘yicha jahon sammitida ekologik muammolarni chuqur muhokama qilib, aniq takliflarni ilgari suryapti. Davlatimiz rahbari 1-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan konferensiyaning asosiy yalpi sessiyasida ishtirok etar ekan, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanganini ta‘kidladi.

Bu tahdid barcha davlatlarga birdek xavf solmoqda. Bir vaqtlar ayrim

mamlakatlardagina kuzatilgan iqlim muammolari bugunga kelib, sayyora-mizni qamrab olmoqda. Har bir davlat bu borada bir-biriga bog‘liq bo‘lgani holda yechimlarni ham, kurash chora-tadbirlarini ham birgalikda izlashiga to‘g‘ri kelyapti. Bu muammolarning asosiy qismi esa, avvalo, oziq-ovqat xavfsizligiga borib taqaladi. Boisi, havo harorati o‘zgarishidan tortib, suv taqchilligi, cho‘llanish, qurg‘oqchilik, atmosfera ifloslanishi kabi omillarning bari bevosita oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Davomi 4-betda



TAASSUROT

O‘zbekiston – Ozarbayjon:
DO‘STLIK VA QARDOSHLIK
ALOQALARI HAR JABHADA
IZCHILLIK KASB ETGAN

O‘tgan haftada O‘zbekiston — Ozarbayjon nodavlat notijorat tashkilotlari birinchi hamkorlik forumi bo‘lib o‘tdi. Ozarbayjonda o‘tkazilgan anjumanda O‘zbekistonning qator nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon aloqalari har tomonlama rivojlanib, kengayib bormoqda. Bunda ikki davlat rahbarlarining tashabbus va g‘oyalari asosidagi sa‘y-harakatlar juda katta ahamiyat kasb etyapti.

O‘zbek va ozar xalqi azaldan do‘st. Dini bir, tili, an‘analari o‘xshash va mushtarak.

Davomi 5-betda



O‘ZGARISHLAR SHUKUHI

TEZ, QULAY, SODDA
VA SHAFFOFO‘zbek-qirg‘iz chegara-bojxona
postlaridagi bugungi holatni
shunday baholash mumkin

Joriy yil sentyabr oyining ilk kunidan boshlab, O‘zbekiston — Qirg‘iziston chegara-bojxona postlarida qo‘shimcha o‘tish punktlari ochildi, ID karta bilan o‘tish tartibi yo‘lga qo‘yildi. Ayni kunda ikki davlat hududiga kirish, chiqish, tranzit o‘tish, harakatlanish va unda bo‘lib turish uchun identifikatsiya kartasidan foydalanilayotgani tufayli davlat chegarasini kesib o‘tish tizimi yanada soddalashdi.



Davomi 2-betda



“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

IMTIHONGA EMAS, HAYOTGA
TAYYORLAYDIGAN MAKTABLARMamlakatimizdagi har bir fuqaroga o‘z salohiyatini
ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratish masalasi
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan ham joy oldi.

Unga muvofiq, xalqaro tajribani o‘rganish, o‘qitish tizimi rivojlangan davlatlarning eng yaxshi, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy o‘ziga xosligini ifoda eta oladigan jihatlarini joriy etish ta‘limdagi islohotlarning muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqilgan aniq mexanizmlar asosida bu borada muayyan ishlar qilinmoqda. Xusu-

san, o‘qitish tizimi yuqori baholanadigan Finlyandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar ta‘limining eng afzal jihatlari o‘rganilmoqda. Ularni mamlakatimizda joriy etishning muqobil yo‘llari ishlab chiqilmoqda.

Davomi 5-betda



BUGUNNING GAPI

EKINLAR XARITASIDAGI
AZALIY NE‘MATLAR

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o‘zimizda, katta qismi qo‘shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o‘zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo‘yicha vaziyat ham jiddiy. Bularning ta‘sirida 2030-yilga borib, yurtimizdagi suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi prognoz qilinayapti.

Yurtimizdagi jami suv resursining 90 foizi qishloq xo‘jaligida sarflanyapti. Masalan, bir gektar paxta maydonini sug‘orish uchun yiliga 10-11 ming kub metr suv sarflangani holda, iqlimi va yeri biznikiga o‘xshash mamlakatlarda bundan 2-3 barobar kam suv ishlatilyapti.

Bunga suvni to‘g‘ri boshqarish, isrof qilmaslik hisobiga erishilyapti.

Prezidentimiz joriy yilning 29-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan

o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida bu kabi raqamlarni keltirar ekan, qilinishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni belgilab berdi.

Dunyo tabiiy resurslari instituti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2040-yilga borib, Yer sharida 80 foiz aholi suv tanqisligiga duch kelishi, 2050-yilga kelib, dunyo aholisi 10 milliardga yetishi, oziq-ovqat mahsulotiga talab 2013-yildagiga nisbatan 50 foiz oshishi kutilyapti.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida suv yetishmovchiligi muntazam kuzatilgan. Mintaqadagi dastlabki yirik shaharlar — Samarqand va Buxoro Zarafshon daryosi, Urganch va Xiva Amudaryo, Farg‘ona yoki Axsikent Sirdaryo bo‘yida barpo bo‘lgani ham bejiz emas. Chunki bu hududlarda suv hamma narsani belgilagan, dehqonchilik turmush tarzi va oziq-ovqat hamda atrof-muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun ham aholi faqat suv bo‘lgan joylarda yashab kelgan.

Davomi 4-betda

JAHON STANDARTIGA
MOS AVTOMOBIL YO‘LI

2



O‘ZGARISHLAR SHUKUHI

TEZ, QULAY, SODDA VA SHAFFOF

O‘ZBEK-QIRG‘IZ CHEGARA-BOJXONA POSTLARIDAGI BUGUNGI HOLATNI SHUNDAY BAHOLASH MUMKIN

Boshlanishi 1-betda

Andijon viloyatida Mingtepa va Xonobod chegara-bojxona postlari uzoq yillik tanaffusdan so‘ng zamonaviy mezonlar asosida faoliyatini qayta boshladi. Bu o‘zaro bordi-keldi, savdo, turizm yo‘nalishlarida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Yangi chegara-bojxona posti faoliyati yo‘lga qo‘yilishi asnosida aholi va transport harakati bilan bog‘liq ko‘plab qulayliklar yaratildi. Nafaqat pasport, balki ID karta bilan o‘tish uchun kerakli shart-sharoit, axborot tizimlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ona-bola xonalari, nogironlar va transport harakatlanishi, nazorat qilish yo‘lakchalari ishga tushdi.

Marhamat tumanidagi Mingtepa chegara-bojxona posti Qirg‘izistonning O‘sh viloyati Aravon tumani chegarasida joylashgan. Kunduzi faoliyat yurituvchi xalqaro maqomdagi mazkur postdan bir kunda 2-3 ming fuqaro, 200 dan ortiq avtotransport vositasi o‘tishi va qaytishi mumkin.

— Ushbu post 2009-yilda yopilgan edi, — deydi Mingtepa chegara-bojxona o‘tkazish punkti inspektori, bojxona xizmati kapitani Bahodirjon Ashuraliyev. — O‘zaro bordi-keldi, eksport-import bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyat turlarini rivojlantirishda mazkur maskanning o‘rni katta. Avvalo, ikki mamlakat hududidagi boshqa bojxona-chegara postlarida yuzaga kelgan turli tirbandliklarning oldini olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, chegaraviy savdo va transport aloqasi rivojlanishi hisobiga nafaqat Andijon viloyati shaharlari, balki Farg‘ona, Quva, Marg‘ilon va Qo‘qondan O‘shgacha bo‘lgan masofani qisqartirib, aholi va tijorat tarmoqlari uchun transport qatnovini osonlashtirish va arzonlashtirishga xizmat qiladi.

Aytilisharicha, shu kunga qadar Qirg‘izistonning Aravon tumanidan qo‘shni Marhamat tumaniga Qizilqiyva o‘tkazish punkti orqali 180 kilometr, Madaniyat bojxona o‘tkazish punkti orqali 300 kilometr dan ortiq yo‘l yurilgan. Yo‘ldagi tirbandlik,

soatlab navbatda turish bilan bog‘liq ovoragarchilik ko‘plab noqulayliklarga sabab bo‘lgan. Endi bularga barham berildi.

— Marhamat tumanidagi Qoraqo‘rg‘on qishlog‘idan Aravon tumanidagi Chekobod ovuliga kelin bo‘lib tushganman, — deydi Zuhroxon Baydillova. — Ikki qishloq orasi nari borsa 8-10 chaqirim. Bir ariqdan suv ichamiz. Lekin bu yerdan o‘tib, qarindoshlardan hol-ahvol so‘rash imkoniyatimiz yo‘q edi. Otam vafot etganda boshqa yo‘llar orqali aylanib, janozaga yetib kela olmay qolganimni hanuz achchiq ko‘z yosh bilan eslayman. Endi istagan paytda yaqinlarimni ko‘rgani kelyapman. Ular ham tez-tez

oilaviy korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini qo‘shni davlatga olib borib sotishda turli muammolarga duch kelgan. O‘lis yo‘l, qo‘g‘ozbozlik, uzoq navbat kutish tadbirkor sillasini quritgan.

— Mingtepa chegara-bojxona posti ochilgani ichki va tashqi bozorga mahsulot sotish hajmini oshirish, turlarini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda, — deydi tadbirkor. — Bu yerdan umumiy qiymati 5 ming dollargacha bo‘lgan hunarmandlik mahsulotlarini olib o‘tish, sotish imkoniyati bor. Avvallari mahsulot sotish uchun haftalab vaqt yo‘qotganmiz, turli ovoragarchiliklarga duch kelganmiz. Endi bir kunda sotib, ortimizga qaytayap-



borib turibdi. Ayniqsa, ID karta tizimi yo‘lga qo‘yilgani chegara postidan o‘tish jarayonlarini yanada tezlashtirdi.

Marhamat tumanidagi Qoraqo‘rg‘on qishlog‘ida yashovchi Azizaxon Ergasheva echki junidan ro‘mol to‘qish bilan shug‘ullanib keladi. Shu kunga qadar

miz. Oilaviy korxonamiz faoliyatini yanada kengaytirishni ko‘zlab turibman. Chunki tashqi bozorda tabiiy xom-ashyolardan tayyorlangan mahsulotimizga talab yuqori. Bu qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

— Bu kunlarni orziqib kutganmiz, —



deya suhbatga qo‘shildi Marhamat tumanidagi “Gargar” mahalla fuqarolar yig‘ini nuroniyalar kengashi faoli Muhammadzokir Ergashev. — Mustaqilligimizning 32 yillik bayrami kunlarida ishga tushirilgan zamonaviy o‘tkazish punkti odamlar hayot tarziga yangi nafas olib kirdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki 16 yildan buyon qo‘l uzatsa yetgulik joyga borib-kelish, yaqinlarimizdan xabar olish imkoniyatiga ega emasdik. Endi hammasi o‘zgardi. O‘zaro bordi-keldi, savdo-sotiq, turizm bilan bog‘liq yangi tashabbuslar quloqchoy moqda. Yana bir muhim jihat, mahallamiz aholi yaqinlaridan xabar olish uchun noqonuniy yo‘llar orqali o‘tishga harakat qilib, jinoyat sodir etgani ham bor haqiqat. Bugun bunday salbiy holatlar barham topdi. Istagan vaqtda qo‘shni respublikaga kirib-chiqish imkoniyati yaratildi.

O‘zbekistonning eng sharqiy hududi hisoblangan Xonobod shahrida joylashgan

Xonobod chegara-bojxona posti ham ikki mamlakat aholisi o‘rtasida o‘zaro bordi-keldi, transport logistikasi, savdo-sotiq ishlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Avval 1,3 gektar maydonni egallagan post bugungi kunda 2,2 gektar maydonda qayta tashkil etildi. Uzuksiz faoliyat yurituvchi xalqaro maqomdagi postda kuniga 9-10 ming fuqaro hamda 300 tagacha avtotransport vositasi harakatlanishi uchun imkoniyat bor. 1-sentyabrdan ikki davlat fuqarolari ID karta orqali kirib chiqaypti. Endi shtamp-lar qo‘yilaverib to‘lib ketgan xorijga chiqish

uzoqligi, transport-logistika xizmatlari narxlari yuqoriligi ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni oshib ketishiga sabab bo‘lgan. Bu bozorimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ayni kunda qo‘shnilarimizdan mahsulot xarid qilaymiz, ish o‘rganib, malaka oshirayapmiz.

O‘zbekiston chegara posti tomon harakatlanib kelayotgan avtomashina e‘tiborimizni tortdi. Haydovchi mashinani belgilangan joyga to‘xtatdi. Sanoqli soniyalar ichida hujjatlarni rasmiylashtirib, harakatini davom ettirdi.

— Qo‘rg‘ontepa tumanidagi singlimdan xabar olgani ketyapmiz. To‘y boshlab qo‘yibdi, — deydi Suzoq qishlog‘lik Isroiljon Abdullayev. — Nari borsa, 30 kilometr yo‘l yurib, manzilga yetib olamiz. Avvallari unikiga borish uchun 150 kilometr dan ortiq yo‘l bosib, uch kunlab vaqt yo‘qotganmiz. Endi shaxsiy mashinamizda harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bojxona-chegara postida aholi va transport harakatlari bilan bog‘liq barcha sharoitlar yaratib berilgani ortiqcha rasmiyatchilik, vaqt yo‘qotish bilan bog‘liq muammolarga chek qo‘ydi.

— Singlim Qirg‘izistonga kelin bo‘lib tushgan, to‘y-ma‘rakalar, yaxshi-yomon kunlarida yonida bo‘lishga intilamiz, — deydi xonobodlik Humoyun Abdullajonov. — Mana, chegaralar ochildi, bemalol bordi-keldi qilyapmiz. Ilgari chegaradan o‘tish uchun xorijga chiqish pasporti talab qilin, postda muhr bosilardi. Endi ID kartaning o‘zi kifoya. Odamlarning bir-biriga ishonchi oshdi, mehr-muruvvat kuchaymoqda.

— Bozor-o‘charga borish, texnika ustalari yoki shifokorlarga ishimiz tushganda Xonobodga kelishni xohlaymiz. O‘zbekistonda do‘stlarim ko‘p, ular bilan bordi-keldi qilamiz. Ba‘zida bir kunda ikki-uch marta kirib chiqishga to‘g‘ri keladi. Avvallari har bir fuqaro pasportidagi qaydlar bojxona-chegara postida ketma-ketlikda kompyuterlarga qayd etilgan. Bu birmuncha vaqt yo‘qotish, navbat kutishlarga sabab bo‘lgan, — deydi Suzoq qishlog‘ida yashovchi Ilyosbek No‘monjonov. — Endi hamma jarayon ID karta orqali amalga oshirilayotgani tufayli kelib-ketish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish sifat jihatidan yaxshilandi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston — Qirg‘iziston o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan uzviy hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik odamlar hayot tarzini o‘zgartirish, mehr-muhabbat rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston muxbiri

Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.



INSON VA TABIAT

EKOLOGIK HUQUQLAR – BUGUN VA KELAJAGIMIZ KAFOLATI

Xayrullo G‘AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o‘rinbosari

Xalqimiz yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib, umumxalq referendumida qabul qilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmuniga islohotlarimiz negizini tashkil etuvchi “Inson qadri uchun” g‘oyasi chuqur singdirilgan. Bosh qonunimizning salmoqli qismi fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga taalluqli bo‘lib, inson qadr-qimmatini, sha‘ni va g‘ururi barcha sohalarida birinchi o‘rinda turishi ifodasini topgan. Xususan, unda ekologik huquqlar aks etgan.

Atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga ta‘sir qiluvchi muhim omil. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi ko‘p jihatdan atrof-muhit holatiga bog‘liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralarni qisqarayotgan, global iqlim o‘zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog‘liq muammolar insoniyat kelajigiga tahdid solayotgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, ko‘pgina rivojlangan davlatlarda ushbu muammo keng muhokama etilmoqda hamda konstitutsiyalarga ekologiya, atrof-muhit muhofazasiga oid yangi normalar kiritilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham fuqarolarning qulay ekologik muhitda yashash, tabiiy resurslarga, ularidan oqilona foydalanishga bo‘lgan huquqi mustahkamlangani, ular davlat muhofazasida ekanini kafolatlangan.

Masalan, unda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilandi.

Shuningdek, davlat barqaror taraqqiyot prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tik-



lash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishi, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishni mustahkamlab qo‘yildi. Bu yo‘nalishda amaliy ishlar ham izchil davom etyapti. Xususan, 2018-yildan shu kunga qadar Orol tubining 1,7 million gektarida ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajarildi. Orolbo‘yidagi murakkab ekologik vaziyatni yumshatish, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududga barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilayotir.

Har kim sog‘lom va qulay atrof-muhitga, uning holati haqidagi haqqoniy axborotga ega bo‘lishi bo‘yicha kiritilgan normalar esa tabiatga ta‘sir kuchi bo‘lgan subyektlar hamda mansabdor shaxslarning tabiat himoyasi uchun mas‘uliyatini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda shaharsozlik hujjatlari loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi ham qat‘iy belgilab qo‘yildi. Bularning barchasi atrof-muhit musaffoligini ta‘minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni, roli va faolligi oshishiga xizmat qiladi.

Bosh qonunimizda “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlirlar”, deb belgilab qo‘yilgan. Bu, fuqarolar yer, suv, o‘rmon, yer osti boyliklari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishi, ularni tiklash va muhofaza qilishni hamda bu majburiyatni o‘z vaqtida bajarishini taqozo etadi.

Konstitutsiyamizda mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi, mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi belgilangan. Bu esa har qanday mulk egasi, mulkdor tegishli mulkdan foydalanishda amaldagi ekologik qonun talabari va majburiyatlarini bajarishi hamda ular to‘liq rioya etilishi lozimligini anglatadi.

Bosh qonunimizda yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummmilliy boylik, ularidan oqilona foydalanish va ular davlat muhofazasida ekanini mustahkamlangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma bilan ekologik faoliyatning asosiy prinsiplari ifodalangan.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Ekologiya huquqida oqilona deganda, tabiiy resurslardan ekologik normativ va standartlarga qat‘iy rioya etgan holda foydalanish tushuniladi. Tabiat obyektlari va resurslari davlat tomonidan qo‘riqlanadi. Bu davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta‘minlashni hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquq va manfaatlariga, shuningdek, ekologik huquq-tartibotga rioya etilishini kafolatlashini anglatadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos, ishonchli kafolat hamda barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy barqaror muhitning mustahkam poydevori bo‘lishi bilan birga, fuqarolarimizning qulay atrof-muhitga bo‘lgan ekologik huquqlarining mustahkam kafolati hamdir.

JAHON STANDARTIGA MOS AVTOMOBIL YO‘LI



“A-380” rusumli “G‘uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu” xalqaro avtomobil yo‘li qurilishi jadal sur‘atlarda olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida mazkur avtomobil yo‘lining Buxoro viloyati hududidan o‘tgan 150-228 kilometr oraliqidagi 78 kilometr qismini rekonstruksiya qilish loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

— Loyihaning umumiy qiymati 207,2 million AQSH dollarini tashkil qiladi, — deydi Buxoro viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi bosh muhandisi Hasan Sherov. — Xitoyning “CRBC va SSSS Third Highway Engineering Co. Ltd” qo‘shma korxonasi xalqaro ahamiyatdagi yo‘l inshooting sement-beton qoplamasini qurish ishlariga bosh pudratchi etib tayinlangan. Bu loyiha amaliyotini 2025-yil oxiriga qadar to‘liq yakuniga yetkazish choralari ko‘rilmogda.

Ayni kunlarda mazkur avtomobil yo‘lining 228-315 kilometri oraliqidagi 87 kilometr yo‘l qismini mukammal rekonstruksiya qilish loyihasi yakuniy bosqichda. Loyihani to‘laqonli amalga oshirish muddati 2020-2023-yillarga mo‘ljallangan.

Xalqaro ahamiyatdagi yo‘l ta‘miri loyihasi viloyatda Buxoro, Romitan, Jondor va Peshku tumanlaridan o‘tgan avtomagistral yo‘lida olib borilyapti. Loyihaning umumiy qiymati 184,8 million dollar. Shundan Osiyo Taraqqiyot bankining mablag‘i — 131 million dollari, O‘zbekiston Respublikasining ulushi esa 53,8 million dollari tashkil etmoqda.

— Loyiha doirasida qaytadan qurishga tushgan jami 15 ta ko‘priknig 13 tasida qurilish ishlari to‘liq yakunlandi, — deydi boshqarma bosh mutaxassisi Farrux Dehqonov. — Avtomobil qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Aynan mazkur avtomobil yo‘lining 368,1 kilometr qismida “O‘ng qirg‘oq” kollektori ustidan yangi ko‘priknig qurish belgilangan. Obyektning umumiy qiymati 26 milliard 535 million so‘m bo‘lib, 2023-yil uchun buyurtmachi va pudratchi Navoiy ko‘priklardan foydalanish unitar korxonasi o‘rtasida 14,1 milliard so‘mga teng shartnoma tuzilgan. Joriy yilning o‘tgan davri davomida pudratchi tomonidan ko‘prikdak belgilangan ish bajarilib, inshoot foydalanishga topshirilgan.

Shuningdek, qolgan 2 ta ko‘prikdak asosiy qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilmoqda va hademay bu o‘tkazgichlar ham ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Umuman, bu loyihaga muvofiq, joriy yil yakuniga qadar asosiy qurilish ishlari yakunlanadi. Birinchi bosqichda 78 kilometr, ya‘ni “Jo‘yzar” ko‘prigidan Qorovulbozor kengliklari bo‘ylab qo‘shni viloyatning Muborak tumani chegarasigacha, ikkinchi bosqichda esa “Jo‘yzar” ko‘prigidan Gazli shaharchasi bo‘ylab Xorazm viloyati chegarasigacha bo‘lgan 87 kilometr dan iborat loyiha — keng va ravon yo‘l jahon standartlariga mos, sifatlari qurib bitkaziladi.

Natijada bu ravon yo‘l qo‘yillar xalqimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qiladi.

O‘ZA suratlari.

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNIORTGA QAYTMAS
ISLOHOTLARNING
MUHIM IFODASI**Qahhor JUMAYEV,**
Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti
yetakchi ilmiy xodimi

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan har bir davlatda yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish tizimi joriy etilgani, yer haqiqiy tovar sifatida bozor muomalasiga kiritilishi uchun imkoniyat yaratilgani iqtisodiyotni taraqqiy ettirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Biroq mamlakatimizda uzoq yillar mobaynida yerga nisbatan xususiy mulkning to‘laqonli joriy etilmagani haqiqiy mulkdorlar qatlami shakllanishiga to‘g‘anoq bo‘ldi.



Ko‘p yillar davomida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yer uchashtalari davlat va jamiyat ehtiyojlari bahonasida olib qo‘yilgan. Ularda joylashgan bino-inshootlar buzilib, mulk egasini qanoatlantirmaydigan mablag‘ (kompensatsiya) berilgan. Berilmaganlari ham topiladi. Bu esa yurtimizda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga chiqardi, arzimagan pul evaziga mulkdorlardan mahrum bo‘lgan odamlarda davlatga nisbatan norozilik kayfiyatini kuchaytirdi.

Keyingi yillarda inson manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bu muammolarga yechim topildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yer uchashtalari xususiylashtirilishi mumkinligi borasidagi huquqiy norma aks etishi mazkur yo‘nalishdagi islohotlar ahamiyatini yanada oshirdi va sohadagi yangilanish jarayonlari ortga qaytmass ekanini belgilab berdi. Yuqoridagi konstitutsiyaviy normaga asosan, endi xususiy mulk bo‘lgan yer uchashtasining egasi haqiqiy mulkdor sifatida uni sotish, hadya qilish, ayirboshlash, garovga qo‘yish va hatto meros qilib qoldirishi mumkin.

Buning natijasida o‘tgan qisqa davrda ko‘plab yer uchashtalari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xususiylashtirildi yoki tadbirkorlik maqsadida ijaraga olindi. Bu esa, o‘z navbatida, tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha kapital yaratish imkoniyatini berdi. Pirovardida jamiyatimizda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratildi hamda muayyan aholi bandligi ta‘minlandi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, birgina 2023-yilning 9 oyi davomida “Ye-auksion” elektron tizimi orqali respublika bo‘yicha qiymati 102,2 milliard so‘mga teng bo‘lgan 4068 ta yer uchashtasi jismoniy va yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida sotildi.

Yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish borasidagi yangicha tamoyillar amaliyotga joriy etilishi O‘zbekiston sharoitida muhim iqtisodiy islohot bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarga bozor munosabatlari rivojlantirish, fuqarolar va yuridik shaxslarning yerga bo‘lgan huquqini ishonchli himoya qilish zarurati turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu qoidaning Bosh qonunda aks ettirilishi davlatning siyosiy irodasini ifoda etdi va bu boradagi vazifasini yanada kuchaytirdi. Chunki yerni xususiylashtirish to‘g‘risidagi qoida so‘haviy normadan konstitutsiyaviy-huquqiy normaga aylandi.

O‘z navbatida, uning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning huquqlari ta‘minlangani hamda yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish borasidagi huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini anglatadi.

Ko‘plab davlatlarning bosh qonunlarida bu kabi normalarni ko‘rish mumkin. Masalan, Italiya, Gretsiya, Ruminiya, Litva, Rossiya va Qozog‘iston kabi davlatlar konstitutsiyalarida yer uchashtalari fuqarolarga xususiy mulk sifatida berilishi mumkinligi to‘g‘risidagi normalar mavjud. Bu esa Konstitutsiyamizga shu yo‘nalishda kiritilgan o‘zgartirishlar xalqaro tajribaga uyg‘un ekanini anglatadi. O‘zbekistonda 2021-yilda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchashtalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yer uchashtalarini xususiylashtirish berish tartibi joriy etilgan, faqat qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchashtalarini xususiylashtirish belgilangandi.

Bu qonundagidan farqli o‘laroq, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xususiylashtirilishi mumkin bo‘lgan yer toifasi bo‘yicha cheklov belgilanmadi, balki umumiy va keng ma‘noda yer uchashtalari xususiylashtirilishi mumkinligi nazarda tutildi. Bu, o‘z navbatida, ushbu konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini yanada oshirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yerdan xususiy mulk sifatida foydalanishda muayyan shartlarni nazarda tutmoqda. Jumladan, yer undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida xususiylashtirilishi mumkinligi belgilandi. Bu fuqarolarga yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish imkonini berish bilan birga, ularga muhim konstitutsiyaviy majburiyat yuklamog‘da. Chunki yer umummilliy boylik va cheklangan tabiiy resurs bo‘lib, mulkdor undan o‘z xohishicha va xo‘jasizlaricha foydalanishi mumkin emas.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan konstitutsiyaviy normalar xususiylashtirilgan yerdan samarali foydalanishni hamda uni kelajak avlodlarga bezavol qoldirilishini ta‘minlashda muhim huquqiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yer uchashtalarini xususiylashtirish to‘g‘risidagi qoidaning Bosh qonunda aks ettirilishi bu borada boshlangan islohotlarning ortga qaytmassligini ta‘minlashda o‘ta muhim. Ushbu norma mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning natijadorligini ta‘minlashda mustahkam huquqiy poydevor bo‘ladi.

Sherzod ZULFIQOROV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Konstitutsiyamiz 1992-yilda qabul qilinganidan buyon kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi, asosan, davlat va jamiyat qurilishi, jumladan, parlament, Prezident, hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan.

Joriy yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimiz tarixida ilk bor referendum yo‘li bilan qabul qilindi. Bosh qonunimiz moddalarida amaldagi 128 tadan 155 taga, normalari esa 275 tadan 434 taga ko‘paydi. Shu tariqa uning 65 foizi xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

O‘z navbatida, Konstitutsiyaga kiritilgan normalarning yarmidan ko‘pi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgani, davlatning xalqimiz oldidagi majburiyati 3 barobar oshganini alohida e‘tirof etish zarur.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston huquqiy davlat ekanini belgilandi. Bu Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlat, deganidir. Bunday davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o‘zlashtira olmaydi, o‘zi bilganicha qarorlar qabul qilmaydi. Barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi.

Huquqiy davlatda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqaidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi ta‘minlanadi.

Huquqiy davlat ko‘rinishlarini qator tamoyillar bilan izohlaymiz. Birinchidan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, ikkinchidan, inson huquq va erkinliklarga rioya etish, ularni himoyalash va ta‘minlash, uchinchidan, fuqaro va davlatning o‘zaro mas‘ulligi, to‘rtinchidan, amalda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi ta‘minlanishi, beshinchidan, sud mustaqilligi, oltinchidan, huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada ekanini boshqa belgilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Konstitutsiyamizning oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanishi huquqiy davlatning muhim va asosiy ko‘rinishlaridan biri. Boisi, Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi konstitutsiyaviy islohotlarning muhim va dolzarb ekanidan dalolat beradi. Negaki, Bosh qonun normalari jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsa, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta‘siri seziladi va e‘tirof etiladi.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotida bevosita amal qilishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin. Birinchisi, fuqaro Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishi, ikkinchisi, barcha subyektlarning Konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi, uchinchisi, vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarni qo‘llashi va ijrosini ta‘minlashi, ayniqsa, sud organlarining roli keskin kuchayishi.



Bu fuqarolarimiz o‘z huquqlarini bevosita himoya qilishiga yo‘l ochadi, sudlar inson huquqlari himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganida Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi, barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huquqlariga bevosita amal qilishi qoidasini qo‘llash shartligi mas‘uliyatini his qiladi.

XALQNI HIMOYALOVCHI
mustahkam qo‘rg‘on

Konstitutsiyamizda fuqaro va davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi, qonunchilikdagi noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi kabi muhim qoidalar tizimlashtirilgan holda belgilandi. Bu esa inson huquq va erkinliklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslarning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishi oliy maqsadga aylanayotganidan dalolatidir.

Huquqiy davlatda barcha munosabatlar aniq qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ammo hayotda davlat va inson o‘rtasidagi ayrim munosabatlar yechimi qonunchilikda ko‘rsatilmagan yoki noaniqliklarga sabab bo‘ladigan holatlar mavjud. Bunda muammo kimning foydasiga va qanday tartibda hal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Deylik, Soliq kodeksining o‘zida muayyan bir masala yuzasidan turlicha norma belgilangan bo‘lishi yoki tadbirkorlikka oid bitta qonunda boshqa norma, ikkinchi qonunda boshqa norma kelishi mumkin. Bunda, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o‘z foydasiga talqin



qilinishini xohlaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shunday nomuvofiqliklar davlat emas, inson foydasiga hal etilishi qat’iy belgilandi.

Ilgariqi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ko‘p qoidalar umumiy tarzda ifodalangan edi. Ya‘ni fuqarolarning o‘z huquqla-

rini amalga oshirishda, himoyalashda aniq belgilangan qoidalar kamroq uchardi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa butkul boshqacha bo‘ldi. Misol uchun, O‘zbekistonda o‘lim jazosini taqiqlash, “Miranda qoidasi”ni qo‘llash, ya‘ni shaxsni ushlab chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi, shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi, mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish kabi yangi nor-



INSON HUQUQ VA
ERKINLIKLARI BILAN
BOG‘LIQ KO‘PLAB
NORMALAR QABUL QILINISHI
MUMKIN, AMMO MAZKUR
HUQUQLARNI TA‘MINLASH
HAMDA KAFOLATLASH,
ALBATTA, DAVLAT
ORGANLARI ZIMMASIGA
KATTA MAS‘ULIYAT VA
JAVOBGARLIK YUKLAYDI.
SHUNGA MOS TARZDA
DAVLAT ORGANLARINING
VAKOLAT VA FUNKSIYALARINI
MUVOFIQLASHTIRISH,
KENGAYTIRISH MASALASI
HAM MUHIM AHAMIYAT KASB
ETADI.

malar o‘rin oldi. Bu normalar fuqarolarning kunlik hayotida duch keladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yaqin-yaqingacha sudlanganlik fakti nafaqat bir shaxs, ya‘ni sudlangan fuqaro, balki uning oila a‘zolari, qarindoshlari hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatish holatlari kuzatilardi. Hech bir holatda inson yaqinlari yo‘l qo‘yg‘an xatolar uchun javob berishi mantiqan oqlab bo‘lmaydigan holatdir. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda shaxsning sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmagligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Bosh qonunimizga ko‘ra, uy-joy mulkdorlariga nisbatan ikki turdagi — sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda teng qiymatda kompensatsiya olish kafolati belgilandi. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz bekor qilinishiga

Ikkinchidan, hukumatning Oliy Majlis va Prezident oldidagi mas‘uliyatini kuchaytirish hisobiga Vazirlar Mahkamasining mas‘uliyat va javobgarligi sezilarli darajada kuchaytirildi, hukumatning maqomi o‘zgardi, parlament quyi palatasining hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki kengaytirildi.

Endi viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari mahalliy kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to‘g‘risidagi norma qat’iy belgilab qo‘yildi. Mahalliy hududlarda ikkita alohida mustaqil tuzilmaga bitta shaxsning rahbarlik qilishiga konstitutsiyaviy jihatdan chek qo‘yilmoqda.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda sudyalari mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada mustahkamlandi. Sudyalari daxlsiz va muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmagligi, davlat sudya va uning oila a‘zolari xavfsizligini ta‘minlashi belgilandi.

Sudlar faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat byudjeti hisobidan bo‘lishi hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta‘minlashi kerakligi to‘g‘risidagi norma mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudga referendum chiqarilayotgan masalalarning Bosh qonunga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish vakolati belgilandi. Bu, albatta, Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi mas‘uliyat oshayotganidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag‘ishlangan va advokatlarning faoliyati kafolatlarini mustahkamlash alohida bob kiritildi. Bu esa kelgusida advokatlarning mustaqil va erkin tarzda faoliyat yuritishini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmagligi, advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan monelikksiz va xoli uchrashishi, maslahatlar berish uchun shart-sharoit ta‘minlanishi, advokat, uning sha‘ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi kabi muhim qoidalar kiritildi. Albatta, mazkur yangi kafolatlovchi normalar advokatlarning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Prezidentimizning joriy yil 8-maydagi farmonida yangilangan Konstitutsiyamizning barcha vazirlik va idoralar faoliyatida so‘zsiz ijrosini ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Bu farmon asosida davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash uchun shaxsan javobgarligi, Konstitutsiya davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llanishi, uning normalarini amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmagani vaji bilan qo‘llashni rad etish qat’iyan taqiqlanishi belgilab qo‘yildi. Albatta, mazkur vazifa va talablar Konstitutsiyaning bevosita siyosiy, huquqiy, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishda o‘z kuchi va salmog‘ini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.



KUN MAVZUSI

YERGA MUNOSABATIMIZ O'ZGARMASA

oqibati qanday bo'radi, nimalarni kutish mumkin?

Shuhrat BOBOMURODOV,
Tuproqshunoslik va
agrokimyoviy tadqiqotlar
instituti direktori

Boshlanishi 1-betda

Yana bir jiddiy masala tuproq degradatsiyasi bilan bog'liq. Ya'ni saholanish, qurg'oqchilik ta'sirida zaminimizdagi aksariyat tuproq yemirilib, unumdorligini yo'qotmoqda. BMT tahlillariga ko'ra, jahondagi yer resurslarining 40 foizga yaqini degradatsiyaga uchragan. Buning oqibatlari 100 dan ortiq mamlakatda istiqomat qilayotgan 1 milliarddan ziyod aholi salomatligi va farovonligiga xavf solyapti. Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida tuproq muammolariga ham alohida to'xtaldi. Ta'kidlanganidek, tuproq yemirilishi jarayonlari mintaqadagi 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sayyoramizda antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik buzilishlar, iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik va saholanish jarayoni kuchayib borayotgani eng dolzarb muammolardan biriga aylanagan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasi bundan jiddiy zarar ko'rib, tuproq unumdorligi pasayishga olib kelayotgani insoniyat oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Harorat va namlikning sezilarli darajada o'zgarishi har qanday ekinning suv va ozuqa elementlariga talabini ham me'yordan chiqarib yuboryapti.

Masala ancha jiddiy

Tuproqning nuragan tog' jinslaridan farqi uning unumdorligidadir. Ana shu unumdor yuzada inson uchun zarur oziq-ovqat mahsulotining 95 foizga yaqini yetishtiriladi. Tuproq tirik organizm bo'lib, unda turli mikroorganizmlar, yer osti jonzoatlari yashaydi. U o'simliklar hayoti uchun zarur unumdorlik xossa-xususiyatlariga ega, bir necha qatlamlardan iborat qoplamdir. Shu bois, tuproq unumdorligi qancha yuqori bo'lsa, shuncha katta ozuqa yetishtirish manbaiga aylanadi.

Ammo so'nggi yillarda yer resurslariga tabiiy va antropogen ta'sir ortib boryapti, natijada degradatsiya jarayoni faollashgan. Tuproq degradatsiyasi tuproq unumdorligi pasayishi, ekologik va meliorativ holati yomonlashishi jarayonidir. Bu hozirgi vaqtda global muammo bo'lib, hech bir mintaqaga yoki davlat o'zini tuproq degradatsiyasi muammasidan to'liq xoli bo'lgan, himoyalangan, deb hisoblay olmaydi.



BUGUNNING GAPI

Dilorom YORMATOVA,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasi dunyodagi o'rtacha suv iste'molining taxminan 70 foizini ishlatgan holda, hudud jihatdan taxminan 12 foizni tashkil etadi. Masalan, yurtimizda 1 tonna bug'doy doni yetishtirish uchun 1,5 ming, 1 tonna sholi yetishtirish uchun 4 ming, bir tonna paxta tolasini uchun 10-12 ming kub metr suv sarflanadi.

Hozirgi vaziyat suv kam talab qiladigan, eng avvalo, o'suv davri qisqa ekinlarni tanlashni taqozo etmoqda. Ana shunday ekinlardan biri tariqqir. Uning shunday navlari borki, 50-60 kunda pishib yetiladi va iste'mol qilish mumkin bo'lgan sifatlari don beradi. U tuproqda namlik miqdori 48 foiz bo'lgan vaqtda ham unib chiqadi. Donidan to'yimli va to'liq hazm bo'ladigan ovqatlar tayyorlanadi va bir yilda 2-3-marta hosil olish mumkin.

Bugungi kundagi iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqib, FAO tavsiyasi bo'yicha

qurg'oqchilikka chidamliligi va barcha xususiyatlarini e'tiborga olib, 2023-yil Xalqaro tariq yili, deb e'lon qilingan.

Tariqning 100 kilosidan 87 foizgacha yorma doni olinadi. Bu ekin yer tanlamaydi, poxoli ham bug'doy somonidan ko'ra to'yimliroq. Donida 10-15 foiz oqsil, 50 foiz uglevod, 3,8 foiz moy mavjud.

O'z xususiyatlariga ko'ra tariq eng og'ir va noqulay sharoitda ham yetishtirsa bo'ladigan ekin, qurg'oqchilikka va issiqqa chidamli. Balandligi 50-150 santimetrga boradi. Tuproqdagi namlikni yaxshi o'zlashtiradi, sho'r joylarda ham tez rivojlanadi. Bir gektardan 3 tonna don va 6 tonna somon olish mumkin.

Tariqning ertapishar navlari bahorda tuproq harorati 10-12 darajada bo'lganda ekilishi va har 55-65 kunda pishib yetilishi tufayli bir yilda uch marta hosil olish mumkin. Yozda kuzgi bug'doydan so'ng ekinlarning tariq ikki marta sug'orish orqali ham yaxshi don beradi. Afsuski, yurtimizda bu ekin seleksiyasi va agroteknikasi ustida mutlaqo ishlanmagan. Uning 500 ga yaqin turi bo'lishiga qaramay, yurtimizda yarim asrdan buyon, asosan, "saratoskaya-853" navini ekib kelamiz. Jahon tariqchiligi esa juda ilgari ketgan.

Asl vatani O'zbekiston bo'lib, hozirgi paytda anchayin unutilgan yasmiiq o'simligining ham o'suv davri qisqa, erta bahorda ekilib, ikki marta sug'orilsa hosil beradi. Yasmiiq doni tarkibida 30-32 foiz oqsil bor, tez pishadi. Erta bahorda yoki ob-havoning kechishiga qarab, fevral oyining ikkinchi yarmida ekib bo'ladi. Shunday yo'l tutilsa, yasmiiq

Masalan, sug'oriladigan yerda turli darajada suv va irrigatsiya eroziyasiga chalingan maydonlar 630,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 343,8 ming gektari kuchsiz, 208,6 ming gektari o'rtacha va 78,1 ming gektari kuchli yuvilgan tuproqlar ekani aniqlandi. Sug'oriladigan yerning 7,6 foizi turli darajada toshloq ekani, tuproqning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgani ham jiddiy masalalardan biri.

An'anaviy usullar o'zini
oqlamaydi

Tadqiqotlar hududlar kesimida o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar yordamida qayd etib borilayotgani ham samaradorlikni oshiryapti. Jumladan, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti va uning hududiy bo'linmalari tomonidan o'tgan yili Sirdaryo, Navoiy, Farg'ona va Andijon viloyatlarida sho'rланishga moyil sug'oriladigan 576,8 ming gektar yerda tahlillar olib borilib, sho'rланgan tuproq umumiy xaritada tushirildi. Joriy yilda xuddi shu ishlarni Jizzax, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi

666,1 ming gektar yerda amalga oshirdik. Tadqiqotlar o'tkazilgan har bir massivning 1:100000 masshtabli tuproq sho'rланishi kartogrammasi, sho'r yuvish me'yori, muddati va soni keltirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, belgilangan tartibda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Olingan natijalar esa Qishloq xo'jaligi vazirligi geoportaliga joylashtirib borilyapti.

Hozir institutda amalga oshirilayotgan 13 ta ilmiy tuproq xossa-xususiyatlarini yaxshilash, meliorativ holatini barqarorlashti-



rish, tuproqlarni organik moddaga boyitish, mineral o'g'itlar samaradorligini oshirish, tuproqlar zichlashishi va ifloslanishining oldini olish, eroziyaga qarshi kurashish bo'yicha resurstejamkor texnologiyalar va ilmiy yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. Tabiiyki, ular orqali mavjud muammolar bo'yicha ilmiy asoslangan va zamonaviy usullardan iborat aniq takliflar ilgari suriladi.

Masalan, bugungi kunda sug'oriladigan tuproqning qariyb 47 foizi turli darajada sho'rланishga uchragan. Buning yomon jihati shundaki, tuproqdagi ortiqcha tuz o'simlik o'sishiga to'sqinlik qilib, hosilni kamaytiradi. Odatda bunga qarshi kurashishda an'anaviy usullardan biri bo'lgan sho'r yuvishdan foydalaniladi. Biroq bu usul juda ko'p suv talab qilib, ortiqcha isrofga sabab bo'ladi. Shundoq ham suv manbalari rimizning asosiy qismi qishloq xo'jaligiga sarflanishini hisobga olsak, tejamkor texnologiyalarni qo'llash vaqti kelgani oydinlashadi.

Shu bois, muammoni hal qilish uchun integratsiyalashgan qishloq xo'jaligi texnologiyasini ishlab chiqishni taklif etganmiz. U tuproq sho'rланishini samarali boshqarish uchun turli texnika va amaliyotlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bunda tuproqqa innovatsion biologik faol moddalar kiritish, mayda yopiq drenajlash tizimini qo'llash, fitomelioratsiya usullaridan foydalanish hamda sho'r suvni chuchuklashtirish, ya'ni teskari osmos orqali sho'rsizlantirish kabi texnologiyalardan birgalikda foydalanish ko'zda tutilgan. Bu kabi innovatsion amaliyotlar tuproq tuzilishini yaxshilab, sho'rланish darajasini kamaytirish barobarida suvni tejashga yordam beradi.

Hozir institutda "Tuproq sho'rланishiga qarshi kurashishning integratsiyalashgan agroteknologiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihasi tayyorlanmoqda. Mazkur loyiha doirasida tuproq sho'rланishiga qarshi kurashda yuqorida keltirilgan bir necha ilg'or texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali yurtimizda tuproq sho'rланishiga qarshi kurashish bo'yicha yangi, ilmiy asoslangan agroteknologiya ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Qolaversa, bu yo'nalishdagi boshqa muammolarga ham eng ilg'or texnologiyalarga asoslangan zamonaviy yechimlar taklif etilyapti.

Eng muhimi, sohada o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifat jihatidan yangi bosqichga chiqib boryapti. Tuproq tahlillarini yuqori aniqlik va tezlikdagi zamonaviy uskunalarida amalga oshiryapmiz. Oxirgi yillarda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan institutga xorijning eng ilg'or texnologiyalari olib berildi. Tahlil markazimiz va uning hududiy bo'linmalari laboratoriyalari zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Bu esa tuproqda sodir bo'layotgan salbiy jarayonlarni o'z vaqtida aniqlash, yuqori aniqlikdagi tuproq kimyoviy tahlillarini o'tkazish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga xizmat qilaypti.

Institutda tuproq-tahlil xizmatlari ko'lami tobora kengayib boryapti. Shu kunlarda eng zamonaviy texnologiyalardan yana biri — Germaniyada ishlab chiqarilgan "Agilent 5800 ICP-OES" spektrometri ilm dargohiga olib kelinib, ishga tushirildi. Qurilma shu turdagi asboblarning eng yangi evolyutsiyasi hisoblanadi. Undan, asosan, tuproqdagi metall tarkibini tahlil qilishda foydalaniladi.

Bu usul hozir ommalashib boryapti va tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar tuproqqa o'ylanishi kerak bo'lgan o'g'itlarning optimal miqdori va tarkibini aniqlash imkonini beradi.

Texnologiya namuna tahlili paytida butun to'liq uzunligi bo'ylab ma'lumotlarni to'playdi va ulardan namunadagi 70 tagacha element konsentratsiyasini hisoblashda foydalanadi. Qurilmaning texnik qismi ikkita konfiguratsiyadan iborat bo'lib, ularning har biri mavjud to'liq uzunligi oraliqida bir vaqtda tezkor o'lchashni ta'minlaydigan noyob tizimga ega. Zamonaviy texnologiya turli iloverlar uchun mos keladigan kuchli va ishonchli texnika hamdir.

Yangi qonun
qabul qilinmoqda

Tuproqdan samarali foydalanish va unumdorligini oshirish qishloq xo'jaligining bir qismi bo'libgina qolmay, mamlakat miqyosidagi dolzarb masala hamdir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy qismi shunga bog'liq bo'lib turgan vaqtda jiddiy chora-tadbirlar ko'rish, masalaga tizimli yondashish zaruriyati ortib bormoqda. Bu borada qator huquqiy asoslar yaratilayotgani boisi ham shunda.

Jumladan, davlat dasturida tegishli qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan edi. Soha mutaxassislari, olimlar hamkorligida loyiha tayyorlandi. Joriy yil 24-noyabr kuni Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilinib, senatorlar tomonidan to'liq ma'qullandi.

Mazkur qonunning maqsadi, avvalo, mamlakatimiz yer maydonidagi tuproq qatlamini muhofaza qilish, unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Masalan, tuproqni muhofaza qilish choralarini belgilangan bo'lib, bu o'z ichiga tuproq degradatsiyasi va sho'rланishga qarshi kurash, tuproq unumdorligini oshirish va boshqa maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, ifloslangan, buzilgan yoki boshqa ko'rinishda degradatsiyaga uchragan tuproqni tiklash, monitoringini yuritish kabi qator aniq vazifalarni qamrab oladi.

Bu esa tabiiy boyligimiz hisoblangan tuproqqa bo'lgan munosabatimiz, mas'uliyatimizni yanada oshiradi. Zero, ota-bobolarimiz aytganidek, ona yer bizni boqadi, to'yintiradi. Demak, uni muhofaza qilish, asrab-avaylashga barchamiz birdek mas'ulmiz.

ekologik toza iste'mol moyi olinadi, degani. Negaki, 100 kilo kunjut urug'idan 60-63 litr moy chiqadi. U chorva mollari uchun ham eng xushta'm mahsulot hisoblanadi. Afsuski, yurtimizdagi sug'oriladigan maydonlarda kunjut juda kam ekiladi, ammo iste'mol uchun xorijdan import qilib keltiriladi.

Bizda unutilayotgan yana bir donli ekin mavjud bo'lib, aslida, ota-bobolarimiz shu ekin orqali eng og'ir paytlarda ham qora qozonini qaynatgan va tirikchiligini o'tkazgan. Bu jo'xori bo'lib, qurg'oqchilikka o'ta chidamli, donidan Afrika va Osiyo xalqlari non tayyorlaydi. Jo'xori unini bug'doynikiga qo'shib non tayyorlaganda uning to'yimligi ancha sohadir. Jo'xori donidan zo'ra non tayyorlanganini, dasturxon ko'rki bo'lganini yoshi ulug'lar yaxshi eslaydi.



Jo'xorini "o'simlik dunyosining tuyasi", deb ham atashadi, chunki u makkajo'xoriga qaraganda ikki barobar kam suv talab qiladi, sho'rланgan tuproqlarda o'sadi.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, jo'xori ekiladigan maydonlar yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ekin hozirgi kunda dunyo dehqonchiligida 85 million gektarni tashkil etadi. Uning qariyb teng yarmi Osiyoda, qolgan qismi Afrika va Amerika hissasiga to'g'ri keladi. Lekin keyingi paytda Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Fransiya, Ispaniya va Italiyada uni yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Avstraliyada esa jo'xori maydonlari keyingi 20 yilda 10 karra kengaydi, hosildorligi 14 karra oshdi.

Xitoyda jo'xori davlatning strategik ekinlari ro'yxatiga kiritilgan. Bu mamlakat odatda AQSH va Avstraliyadan jo'xori sotib oladi, shu bilan birga, Amerika jo'xorisining 60 foizga yaqini Xitoyga eksport qilinadi. Dun-

yoda ushbu ekin inson ozuqasida bug'doy va guruhdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Vitaminlar va mikroelementlarga boy. Doni to'yimli, tarkibida 65-75 foiz kraxmal, 10-15 foiz oqsil, 3,5 foizgacha yog' bor. 100 kilosi 119 ozuqa birligiga teng. Uni bir marta ekib, uch marta o'rib olishingiz mumkin. Eng muhimi, sho'rغا chidamli.

Uning yana bir turi shakar jo'xori bo'lib, poyalardagi bo'g'imlarida qand moddasi bor, suvga kam talabchan. Shakar ishlab chiqaruvchi korxonalarni xomashyo sifatida foydalanishi mumkin.

Suvga kam talabchan o'simliklardan yana biri no'xatdir. Lalmi yerlarda 6-8, sug'oriladigan maydonlarda ikki marta suv qo'yish bilan 22-32 sentner hosil beradi. U o'vak, qumoq, yengil sho'rланgan tuproqli yerlarga ekiladi. Qora, bo'z, kashtan tuproqlarda mo'l hosil beradi. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg'oqchilik va sho'rغا chidamli. Urug'i 2-5 daraja haroratda unib chiqadi.

Doni tarkibida fosfor, kalsiy, magniy, temir, rux hamda beta-karotin moddalari mavjudligi bilan qimmatlidir. Tuproqqa o'zidan so'ng 65-70 kilogramm sof azot qoldiradi. Ekish me'yori 45-50 kilo bo'lib, qish yumshoq kelganda kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Urug'i uzoq vaqt tuproqda unib chiqmasdan qolib ketsa ham sovuv urmaydi. Baquvvat idizlari tuproqdagi namni tejab sarflaydi va qurg'oqchilikka chidamli.

Demak, endi qishloq xo'jaligida ekinlarni hududlar bo'yicha taqsimlashda iqlim o'zgarishini va suv tanqisligini e'tiborga olishni, suvga kam talabchan, qadimgi ekinlarni ekishni davmning o'zi kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday ekin yetishtirish agroteknika va qayta tashlash sanoatini, eksport salohiyatini o'yilagan holda ish olib borishni taqozo etadi. Shunday ekan, ularning yangi navlari, seleksiyasi va urug'chiligi, agroteknikasi bo'yicha izlanishlarni amaliyotga tatbiq etishni bugundan boshlashimiz zarur bo'ladi.



may oyi o'rtasi yoki oxirida pishib yetiladi. Yasmiiq unidan non tayyorlanadi va bolalar ovqatlariga foydali modda sifatida qo'shiladi. U organizmdagi oksidlovchi stressni sekinlashtiradi, yallig'lanish va surunkali kasallik xavfini kamaytiradi. Nafaqat teri, balki butun organizmning yoshligini saqlashda ajoyib yordamchi sanaladi.

Ayni paytda dunyoda yasmiiq maydonlari 7 million gektardan ortiq bo'lib, Turkiya va arab mamlakatlarida keng maydonlarda yetishtiriladi.



O‘zbekiston – Ozarbayjon:

DO‘STLIK VA QARDOSHLIK ALOQALARI
HAR JABHADA IZCHILLIK KASB ETGAN

TAASSUROT

Boshlanishi 1-betda

Azaliy qardoshlik rishtalari nechog‘liq mustahkam ekanini ozar zaminiga qadam qo‘yishingiz hamono his qilasiz. Odamlari samimiy, O‘zbekistondan ekaningizni bil-gacha esa mehri, hurmati yanada oshadi. Savollaringizga javob topishga, yordam berishga oshiqadi. Ikki do‘st mamlakatning bugungi aloqalarini katta mamuniyat bilan qayd etadi.

Forumning Fuzuliy shahridagi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladigan 1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida tashkil etilishida ham o‘zgacha ma‘no bor. Chunki bu maktab o‘zbekistonlik quruvchilar tomonidan barpo qilingan va ochilishida davlatimiz rahbari ishtirok etgan.

Maktabda 40 ta sinfxona, 6 ta laboratoriya, 2 ta informatika, 5 ta funksional o‘quv xonasi, majlislar va sport zalari, oshxona, kutubxona mavjud. Futbol maydoni, dam olish va tadbirlar o‘tkazish uchun joylar, yugurish yo‘laklari tashkil etilgan. Barcha shart-sharoitlarga ega. Buni o‘zbek xalqining ozarbayjonlik bolalar uchun haqiqiy tuhfası, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

— Forumning qardosh Ozarbayjonning uchta shahri — Janubiy Kavkaz gavhari bo‘lmish Shusha, Fuzuliy va Boku shaharlarini qamrab olgan hamda anjuman buyuk bobomiz nomidagi maktabda ish boshlagani ham ajoyib voqeadir, — deydi O‘zbekistonning Ozarbayjondagi Favqulod-da va muxtor elchisi Bahrom Ashrafxonov. — Chunki bu maktabni qurish tashabbusi O‘zbekiston rahbariga tegishli hamda chuqur falsafiy va insonparvarlik mazmuniga ega. Boisi, yurtimizda 2016-yildan buyon kechayotgan islohotlar aynan ta‘lim sohasida boshlangan. Zero, har qanday qiyinchilikni yengish, jamiyat va davlat rivojiga hissa qo‘shish va milliy manfaatlarini barcha platformalarda, maydonlarda ilgari surish imkonini beradigan haqiqiy kuch bilimdir.

O‘zbek va ozar xalqlari munosabatlari kundan-kunga ortga qaytmalik ruhiyatida mustahkamlanib bormoqda. Turli darajadagi delegatsiyalar almashinuvi, savdosotiq, tovar ayirboshlash hajmi jadallik bilan o‘syapti. Sanoat, investitsiya, transport va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalar ro‘yobga chiqarilayapti. Yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Madaniy-gumanitar tadbirlar doimiy tarzda o‘tkazib kelinayotganiga mazkur tadbir yorqin dalildir.

Tizimli va samarali muloqotlar tufayli O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarilgani, amaliy mazmun bilan boyib borayotgani ayni haqiqat.

Bu yaqinda Boku shahrida BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammiti doirasida



ikki mamlakat rahbarlari uchrashuvida ham alohida qayd etildi. Jumladan, yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 34 foiz oshdi. Avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, energetika, qishloq xo‘jaligi va ipakchilik tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda. Transport va logistika sohasida istiqbolli loyihalar tayyorlanmoqda.

Muloqotlar maydoni NNT
yo‘nalishida ham kengayadi

Ozarbayjon forumi ishtirokchilari o‘zbek-ozar xalqining azaliy birdamligi, qardoshligi va yaqin do‘stona munosabatlari haqida

to‘lqinlanib gapirdi. Kelgusida aloqalarni yanada mustahkamlashda nafaqat davlat organlari, muassasalar, balki nodavlat notijorat tashkilotlar, harakatlar va birlashmalar darajasida ham hamkorlikni kuchaytirishning zarurati va ahamiyati qayd etildi.



Ikki mamlakat nodavlat notijorat tashkilotlarining ilk forumi tarixiydir. Chunki uning Fuzuliy shahridagi maktabda boshlanishi o‘zbek xalqining ozarbayjon xalqiga bo‘lgan e‘tiborini anglatadi.

Do‘st do‘stni og‘ir kunlarda yolg‘izlatib qo‘lmaydi. Mushkul vaziyatda O‘zbekistonning Ozarbayjon xalqiga qilgan yordami qardoshlar tomonidan bot-bot e‘tirof etildi. Bu kabi forum va uchrashuvlar o‘zaro ishonch va mehri, do‘stona munosabatni yanada mustahkamlashi ta‘kidlandi.

— Forum O‘zbekiston va Ozarbayjonning fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi kengayishiga xizmat qiladi, — deydi O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi raisi Kamoliddin Eshonxo‘jayev. — Chunki tadbirlar doirasida ko‘plab uchrashuvlar o‘tkazildi, hujjatlar imzolandi. Mazkur mamlakat nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bilan yaqindan tanishildi. Fikr va tajriba almashildi.

Ayni paytda yurtimizda 40 mingdan ortiq ozarbayjon yashaydi va ular turli sohalarda faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda birinchi Ozarbayjon milliy madaniy markazi — “Gardashlik” 1989-yil Toshkentda tashkil etilgan bo‘lsa, keyinchalik Samarqand va Buxoroda shunday markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 2003-yilda Ozarbayjon madaniyat markazlari uyushmasi, 2010-yilda esa Ozarbayjon elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi yangi binosi ochildi.

Bundan tashqari, Toshkentda Haydar Aliyev nomida ko‘cha va uning yodgorligi barpo qilingan. Sharqshunoslik instituti

o‘ziyoq ikki xalq munosabatlari yuqori bosqichga chiqayotganini anglatadi, — deydi Ozarbayjon Respublikasi Ilm va ta‘lim vazirligi sho‘ba mudiri Turxon Sulaymon. — Aloqalarimiz ta‘lim yo‘nalishida ham jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda o‘zbekistonlik



o‘ttizdan ziyod yoshlar bizning o‘quv yurtlarimizda tahsil olmoqda. O‘zbekistonning o‘nga yaqin oliy o‘quv yurti bilan hamkorlik o‘rnatilgan.

Forumda amaliy jihatdan sermazmun va kelajak aloqalar uchun muhim qadamlar tashlandi. Xususan, Ozarbayjonning Nodavlat tashkilotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash agentligi va O‘zbekiston NNTMA hamda NNOlarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha parlament komissiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Bundan ko‘zlangan maqsad ikki davlat aholisi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega, shuningdek, foydali kelishuvlarni amalga oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan masalalarida NNTlar rolini oshirishdan iboratdir.

Forum dasturi rang-barang bo‘ldi. Unda O‘zbekiston NNT rahbarlari o‘z faoliyati to‘g‘risida taqdimotlar o‘tkazdi. Shusha, Fuzuliy shaharlaridagi bunyodkorlik ishlari, mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati bilan yaqindan tanishildi.

Kavkaz san‘ati
markazi — Shusha
o‘zgarishlar og‘ushida

Bugun Shusha shahrida katta hajmli qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shahar “Qorabog‘ durdonasi”, “Kavkaz san‘ati markazi” va “Ozarbayjon musiqasi beshigi” sifatida mashhur. Shusha qator tanikli fan, madaniyat va san‘at arboblari vatanidir.

Mustahkam do‘stlik va birodarlik ifodasi sifatida davlatimiz rahbari O‘zbekiston Qorabog‘ zaminidagi yodgorliklar, madaniyat va ma‘rifat maskanlarini qayta tiklashga hissasini qo‘shishga tayyor ekanini ta‘kidlagan edi.

2021-yildan Shusha Ozarbayjonning madaniy poytaxti hisoblanadi, 2023-yilda esa Turkiy dunyo madaniy poytaxti, deb e‘lon qilingan.

Joriy yilda Xiva va Shusha shaharlari o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatilgan.

O‘zbekiston delegatsiyasi Shushada bo‘lib, shahar tarixi va madaniyati bilan tanishdi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari Ozarbayjon Prezidentining Shusha tumanidagi vakili Oydin Karimov bilan ham uchrashdi.

Uchrashuvda Shusha tarixi, bugungi kunda zamonaviy qiyofa aks etayotgani, O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlar yanada mustahkamlanib borayotgani qayd etildi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqa o‘rnatishga tayyorlik bildirildi.

Delegatsiya a‘zolari Faxriy hamda shahidlar xiyobonida bo‘ldi. Ikki davlat NNTlari o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Haydar Aliyev markazida Ozarbayjon yetakchisi hayoti bilan bog‘liq tarixiy eksponatlar bilan tanishildi. 2024-yilda hamkorlik forumi O‘zbekistonda o‘tkazilishiga kelishib olindi.

Dilshod ULUG‘MURODOV

Toshkent — Boku — Toshkent

“O‘ZBEKISTON
STRATEGIYASI

2030

IMTIHONGA EMAS, HAYOTGA
TAYYORLAYDIGAN MAKTABLARDilshod RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi uchrashuvlarida umumta‘lim maktablarida fin ta‘lim tizimini joriy etish, darsliklar ham shu tajriba asosida ishlab chiqilishi haqida gapirdi. Shuningdek, Qashqadaryodagi 48 ta maktabda fin ta‘lim tizimini tatbiq etish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Bu jarayonda mazkur davlat ta‘lim tizimining eng afzal jihatlari o‘rganish uchun metodist o‘qituvchilar, ta‘lim menejerlarini Finlyandiyaqa stajirovka va malaka oshirishga yuborish yo‘lga qo‘yilgani muhim qadam bo‘ldi.

Mamlakatimizning turli ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 23 nafar soha xodimi qatori Andijon davlat chet tillar institutining bir guruhi professor-o‘qituvchilari ham Finlyandiya va Shvetsiyada 12 kunlik malaka oshirish kursida bo‘ldi.

Malaka oshirish davomida Finlyandiyaning Xelsinki, Yuvaskula hamda Shvetsiyaning Sodertorn universitetlariga borish rejalashtirildi. Bu orqali Finlyandiya va Shvetsiya ta‘lim tizimining eng muhim yo‘nalish va afzal jihatlari, darsliklar, ta‘lim tizimida o‘quv maqsadi, pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmi, oliy ta‘limda o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja, fan dasturlari, baholash, ta‘limda uzviylik, kredit-modul tizimi va mustaqil ta‘lim, raqamlashtirish, o‘qitish metodikasi, interaktiv metodlarni qo‘llash kabi dolzarb yo‘nalishlarda yangi malaka va bilimlarni o‘zlashtirish maqsad qilindi.

Dastlabki 6 kun Finlyandiya ta‘lim beshigi hisoblanmish Yuvaskula shahrida o‘tdi. Fin tilida ta‘lim beruvchi birinchi universitet aynan shu shaharda ochildi. Bugun Yuvaskuladagi oliy ta‘lim muassasalarida 40 ming-



ma‘naviy va psixologik holatini, o‘zlashtirishini muntazam nazoratda saqlash, yaxshi ta‘lim olish uchun sharoit yaratish, har xil nizoli vaziyatlarning oldini olishdir. O‘quvchilar sifatli bilim olishi uchun sharoit yaratish rejasini ishlab chiqish, takomillashtirish, amalga oshirish,



ota-onalar yig‘ilishlarini tashkil etish va rejalar ustida ishlash ham ularning vazifasiga kiradi.

Bundan tashqari, Finlyandi-

Malaka oshirish davomida Finlyandiya oliy ta‘lim muassasalari orasida kattaligi jihatidan uchinchi o‘rinda turuvchi, QS xalqaro reytingida ilg‘or 300 talikdan joy olgan Yuvaskula universitetida ham bo‘ldik.



dan ortiq talaba tahsil oladi.

Seminarlar EduEffect kompaniyasi direktori Jonne Rautio ma‘ruzasi tinglandi. Ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar va islohotlarning asl mohiyati muhokama qilindi.

Keyingi manzil Makelanmayen Koulu boshlang‘ich ta‘lim maktabi bo‘ldi. Maktab menejmenti, o‘quv jarayoni, o‘qituvchilarga tanlov va boshqalar haqida batafsil ma‘lumot oldik. Direktor maktab faoliyatini nazorat qilib boradi. Direktor o‘rinbosari o‘quv jarayoniga mas‘ul, ya‘ni dars jadvalini tuzish, dars taqsimotlarini yuritish va umumiy o‘quv jarayonini tashkil etish bilan shug‘ullanadi.

Maktabda 1-sinfdan 6-sinfgacha bo‘lgan 750 o‘quvchida dars beriladi. Bu yerda fin o‘qitish tizimining o‘ziga xos jihatlardan biri bo‘lgan inklyuziv ta‘lim jarayoniga ham guvoh bo‘ldik. To‘rtta kichik sinfda qo‘shimcha yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun alohida darslar tashkil qilingan. Yana bir muhim jihat — maktabda asosiy ish yurituvchi organ amalda maktab uchun barcha qarorlarni qabul qiladi. Ushbu organga direktor, direktor o‘rinbosari, 8 nafar o‘qituvchi va kotiba kiritilgan bo‘lib, barcha muhim masalalar shu yerda muhokamalar orqali hal qilinadi.

Shuningdek, o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash guruhi mavjud. Unda direktordan tashqari maktab psixologi, hamshirasi va ijtimoiy ta‘minotchi, guruh rahbari, fan o‘qituvchisi va o‘quvchilar vakili ish olib boradi. Guruhning asosiy maqsadi o‘quvchilarning jismoniy,

yada maktablar uchun yagona Wilma maxsus dasturi ishlab chiqilgan. Undan mamlakatdagi maktablarning barchasi keng foydalanadi. Dastur orqali o‘qituvchilar ota-onalarga xabar yuboradi, maktab rahbariyati va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot ta‘minlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchilar ota-onalarni farzandining ta‘lim olishdagi faolligidan xabardor qilib boradi. Wilma ilovasi yordamida dars jadvali, uyya vazifa, imtihon, sinf eslatmalari va e‘lonlarni ko‘rish mumkin. Qisqacha aytganda, ota-onalar va maktab o‘rtasida muntazam aloqani ta‘minlashning barcha uchun qulay va samarali usulidan foydalanilmoqda. Bu o‘qitish sifatini ta‘minlashning muhim omillaridan biriga aylangan.

Shu bilan birga, bitiruvchilarni hayotga tayyorlash va tadbirkorlikka qiziqish uyg‘otish maqsadida yuvaskulalik ishblarmonlar Muurame pilot maktabini ochgan. Ishlab chiqaruvchilar bilan maktab o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilgan. Maktab bitiruvchilari qiziqarli loyihalar asosida tadbirkorlik tashabbuslari bilan ishlaydi. O‘quvchilar yoshligidan kasbiy yo‘nalishlarini belgilab olib, shu bo‘yicha kerakli bilim va malakani o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Har qanday ta‘lim muassasasidagi o‘qitish sifatini bitiruvchilar salohiyati bilan baholash mumkin. Maktabni o‘rganish jarayonida ulardan biri bilan suhbatlashdik. O‘quvchi ishlab chiqaruvchilar faoliyati bilan integratsiya ma‘qul kelgani, kelgusida qaysi universitetda o‘qishi va qaysi

kompaniyaga borib ishlashini ham hozirdan aniqlab olganini bildirdi. Maktab direktori taqdimot orqali oddiy va tadbirkorlik maktabining farqli jihatlari haqida zarur tushuncha berdi. O‘rganishlardan xulosa qilish mumkinki, tadbirkorlik maktabida hamma ishni amaliyotda o‘rgana oladigan, mas‘uliyatli o‘quvchilar tarbiyalanadi. Ularning kichik loyihalarini mahalliy kompaniya yoki tadbirkorlar moliyalashtiradi.

Umuman olganda, Finlyandiya mo‘jizasi deganda, ko‘proq maktab ta‘lim tizimi ko‘z oldimizga keladi. Bu yerda maktablar tekshirilmaydi, reytingi mavjud emas, ular barcha jihatdan o‘zaro teng. Shuningdek, o‘qitish, ovqatlanish bepul. Finlar uchun eng yaxshi maktab uyiga yaqindir. O‘zlashtirish va qobiliyatiga qarab, o‘quvchilarga murakkab yoki oson vazifa beriladi. O‘zlashtirishda qiynalgan o‘g‘il-qizlar uchun qo‘shimcha dars o‘tiladi. Maktab o‘quvchilarni imtihonga emas, hayotga tayyorlaydi. Davlat o‘qituvchilarga yuqori ishonch bildiradi, ular esa o‘quvchilarga ishonadi, erkinliklarini cheklamaydi.



O‘quvchilar xohlamasa, qiyin topshiriqlar yuklanmaydi, xarakter va ishtaklaridan kelib chiqib kasbiy yo‘nalish beriladi.

Malaka oshirish davomida Finlyandiya oliy ta‘lim muassasalari orasida kattaligi jihatidan uchinchi o‘rinda turuvchi, QS xalqaro reytingida ilg‘or 300 talikdan joy olgan Yuvaskula universitetida ham bo‘ldik. OTMDa ta‘lim va psixologiya, ijtimoiy fanlar, axborot texnologiyalari, matematika, sport va sog‘lomlashtirish fanlari, biznes va iqtisodiyot fakultetlari mavjud. Ishchi va fan dasturlarini professor-o‘qituvchilar mustaqil tuzadi, ular mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Yangi yo‘nalish yoki fakultet ochish uchun esa ta‘lim vazirligiga murojaat qilinadi.

Universitetning o‘qituvchilar tayyorlash fakulteti bilan yaqindan tanishuv davomida Finlyandiya ta‘lim tizimi bosqichlari bo‘yicha taqdimotga guvoh bo‘ldik. Pedagog xodimlarni o‘qitish doirasida dasturlar, talab etiladigan salohiyat va malaka haqida muhim ma‘lumotlar olindi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarni tayyorlashda universitetning innovation va samarador o‘quv dasturlari qizg‘in muhokama qilindi. Mashg‘ulot davomida pedagoglar salohiyatini oshirish bo‘yicha Finlyandiya keng foydalaniladigan besh bosqichli ta‘lim dasturi haqida ma‘lumot berildi.

Oliyog‘ning axborot texnologiyalari fakultetida ta‘lim bilan birga raqamlashtirishga oid ilmiy izlanish va tadqiqotlar qilinishiga guvoh bo‘ldik. O‘qitish tizimida qo‘llanadigan xalqaro baholash dasturlarining o‘ziga xos jihatlari: afzallik va kamchiliklari to‘g‘risidagi ma‘ruza bilan tanishdik. Undan nafaqat bilim, ko‘plab ma‘lumotlar ham oldik. Kelgusida faoliyatimizda qo‘llash bo‘yicha bir qancha g‘oyalarni qayd etib qo‘ydik. Ma‘ruzaning muhim jihatlardan biri baholash dasturlari orqali Finlyandiya ta‘lim tizimi prognozlab borilgani hamda tahliliy ma‘lumotlar taqdim etilgani bo‘ldi.

Universitet kutubxonasi hamda o‘quv, ilmiy adabiyot va hujjatlar saqlanadigan muzeylar, ilmiy nashr, monografiya, nashriyot va tadqiqot markazlari, shuningdek, talabalar va ushbu bazadan foydalanishni xohlovchi fuqarolar uchun beriladigan bepul onlayn ma‘lumotlar platformasi haqida tushuncha oldik. Jumladan, birgina 2022-yilda universitet olimlari 3500 dan ortiq ilmiy resurs yaratgan bo‘lib, ularning 80 foizi yuqoridagi platformaga joylashtirilgan. Ulardan barcha foydalanishi mumkin.

Oldimizga qo‘yilgan maqsadlarning dastlabkisi — Finlyandiya va Shvetsiya ta‘lim tizimi yutuqlarini o‘rganib, yangi bilim va malaka egalladik. Ayni damda ularni mamlakatimizning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari inobatga olgan holda ta‘lim tizimimizga tatbiq etishning eng maqbul yo‘llarini ishlab chiqish, ish faoliyatimizda qo‘llashga intilamiz va bu, albatta, o‘z natijasini beradi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



SARHISOB

YANGI O‘ZBEKISTON

MILLIY MADANIY UYG‘ONISH SILSILASINING OLTIN DAVRI

yoxud xorijliklar bizga qiyin tuyulgan eski o‘zbek adabiy tilini o‘ta jozibali deb hisoblaydi



Aftondil ERKINOV bilan suhbatlashar ekanmiz, o‘tib borayotgan 2023-yilda ushbu noyob merosimizni o‘rganish jarayonidagi yangiliklar va mavjud muammolar bilan qiziqdik.

— 2021-yilda vengriyalik navoiyshunos Benedik Peri bilan uchrashgan chog‘imizda tadqiqotchi chig‘atoy tili va ingliz tiliga asoslangan lug‘at tuzish taklifini bildirgan edi. Joriy yilda ishtirokingizdagi adabiyotshunoslar jamoasi eski o‘zbek adabiy tili va ingliz tiliga asoslangan lug‘at tuzish borasida xayrli ish boshlagani haqida eshitdik...

— Bu tashabbus ne-ne tadqiqotchi olimlar, adabiyotshunoslar va manbashunoslarning orzusi edi. Hozirgi kunda Etos Loran universiteti huzuridagi Sharqshunoslik instituti direktori Benedik Peri, kamina, filologiya fanlari doktorlari Shuhrat Sirojiddinov, Zulumor Mirzayeva hamda Dilnavoz Yusupova bilan birgalikda eski o‘zbek tilidagi matnlardan iborat qo‘llanma tuzdik. Qo‘llanmada eski o‘zbek tilidagi matnlar aslida yozuvida, qisman lotincha transkripsiyada beriladi. Eng asosiysi, talabalar uchun eski o‘zbek tilidagi matnlar majmuasi sifatida kerakli qo‘llanma bo‘la oladi. Bunday qo‘llanma hozirgacha yo‘q edi. “Erasmus+” loyihasi doirasida boshlangan bu xalqaro hamkorlik G‘arbda mumtoz adabiyotimizga, eski o‘zbek tilidagi asarlar matnlariga e‘tiborni kuchaytirishga xizmat qilyapti. Yangi avlod olimlari safi kengayishiga hissa qo‘shyapmiz.

— Yaqinda Samarqandda “O‘zbekiston madaniy merosi — yangi Renessans asosi” VII xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi. Nufuzli anjumanda Mirzo Ulug‘bekning yoshligi tasvirlangan surat topilgani haqida jurnalistlarga bergan ma‘lumotingiz ko‘plab shov-shuylarga sabab bo‘ldi. Mazkur kongressda tilga olingan muhim masalalar va madaniy merosimizning kashf etilgan yangi qo‘riqlari haqida aytib o‘tsangiz.

— 5-8-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan kongressda 40 davlatdan 300 dan ortiq taniqli ekspert, jumladan 20 ta ilmiy tashkilot va 6 ta Fanlar akademiyasi direktorlari, shuningdek, TURKSOY vakillari ishtirok etdi. Anjumanda turkiy tili xalqlar madaniyatini o‘rganish jarayonining yangi davri boshlanganini his qildik. Ma‘ruzachilar bunday forumlarning ahamiyati va zarurligini ta‘kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumatining madaniy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va ommalashtirish borasidagi sa‘y-harakatlarini olqishladi.

O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — Turksay Bosh kotibi Sulton Rayev ma‘ruzalaridan birida bunday degan edi: “O‘zbekiston ko‘p asrli, boy tarix va madaniy merosga ega, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan yurt. Uning tarixi va madaniyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo turkiy xalqlari o‘tmishining yorqin sahifasidir. Bu xalqning boy madaniy merosini o‘rganish va asrab-avaylash uchun keyingi yillarda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Binobarin, madaniy merosni saqlash millatning o‘zligini saqlash bilan barobardir”.

Filologiya fanlari doktori, professor



bo‘yicha jahon jamiyati o‘tmishda zamimizda yaratilgan va hozir turli sabablar tufayli dunyoning yirik kutubxonalari va muzeylarida, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan san‘at va madaniyat dardonalari haqida ma‘lumot to‘plash maqsadida tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida yuzlab olimlar, mahalliy va xalqaro ekspertlar, mutaxassislar ko‘magida dunyoning turli o‘lkalarida saqlanayotgan noyob madaniy mero-

siz savolingizda ta‘kidlab o‘tgan yangilik — Mirzo Ulug‘bekning yoshlikdagi surati bilan bog‘liq ma‘lumotlar o‘rtaga chiqdi.

Sh.Marjoniy jamg‘armasining to‘qimachilik va qo‘lyozmalar kolleksiyasi kuratori Galina Lasikova jamg‘arma fondidan olingan bir noyob miniatyura haqida hikoya qildi. Miniatyurada ustoz va shogird an‘analari, shuningdek, mashhur Shayx Orif Ozodiy va yosh Mirzo Ulug‘bek tasvirlangan. “Oshiqlar yig‘ini”



simiz haqida to‘plangan ma‘lumotlarning 60 jildi “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumida chop etildi. Bu yilgi kongressda esa mazkur turkumda 61-70 jildan iborat 10 ta yangi kitob-albom taqdim etildi. E‘tiborli jihati, ushbu to‘plam kutubxonalarga bepul berilmoqda.

Bundan tashqari, yana o‘ndan ortiq noshirlik loyihasi taqdimotlari o‘tkazildi. Albatta, bularni to‘plash oson bo‘layotgani yo‘q. Lekin hukumatimiz va homiy tashkilotlar ko‘magida, zahmatkash olimlari-mizning izlanishlari natijasida noyob manbalarni o‘rganish va xalqimizga, butun dunyoga O‘zbekiston madaniy merosi sifatida taqdim etishga erishilyapti.

Kongress doirasidagi xalqaro konferensiyalar kashf etib: jahon to‘plamlaridagi o‘zbek kolleksiyalari”, “Jahon jamiyati loyihalaridan Sharq qo‘lyozma merosi dardonalari-gacha”, “Jahon jamiyati loyihalarida Markaziy Osiyo muzeylari va kutubxonalari”, “Markaziy Osiyo tarixi va san‘ati: izlanishlar va kashfiyotlar” hamda “Kino va media olami: merosga yangicha nigh” kabi mavzularda muhokamalar bo‘lib o‘tdi. Ularda 120 ga yaqin ilmiy ma‘ruza tinglandi. Ana shu jarayonda

bur Mirzo kabi allomalarimiz tasvirlari badiiy tasavvur orqali yaratilgan. Lekin Galina Lasikova taqdim etgan bu ma‘lumot to‘liq o‘rganilgani yo‘q. Shu bois, aniq xulosa aytmay turganimiz ma‘qul. Mirzo Ulug‘bekning surati haqida matbuotda aytilgan fikr hozircha ilmiy faraz, xolos.

O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha jahon jamiyati (WOSCU) 2018-yili 40 mamlakatning 300 dan ortiq sharqshunosi tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, 2019-yili Parijda rasman ro‘yxatdan o‘tgan. Bu yil jamiyat O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tdi va Toshkent shahrida muhatxonasini ochdi. Bu ham joriy yildagi muhim yozgalaridan biri, desak bo‘ladi.

— Bir necha yillardan buyon mumtoz adabiyotimizni yoshlarga o‘rgatishning innovatsion usullari haqida tadqiqotchilarning bir necha taklif va mulohazalari, tajribalari o‘rtaga tashlab kelinmoqda. Ularning qaysi biri ish jarayoningizda va tadqiqotlar asnosida qo‘l keldi?



— Ta’lim tizimimizda mumtoz adabiyotni o‘rgatish borasidagi muammolardan biri o‘smir va yoshlarning matn bilan ishlash malakasi yetarli emasligidir. Shor’o davrida o‘quvchilar millati bilan bog‘liq tarixga bog‘lanib qolmasin, deb matnga ko‘p e‘tibor qaratishmagan. Matnni qanday tahlil qilish va undan qanday mazmun va ma‘lumot topishni zarur darajada o‘rgatishmagan. Chunki yoshlarni asl matnlardan uzoqlashtirishga urinishgan. Shukrki, hozir asl matn bilan ishlash, undan ma’no izlash birinchi o‘ringa chiqdi.



Qo‘lyozmalar bo‘yicha ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlaydigan kafedralar ko‘paydi. Masalan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasidagi o‘zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasida matnshunoslik bo‘yicha nufuzli markazdir. Biz matnshunoslar tayyorlashimiz, mumtoz adabiyot bo‘yicha malakali xodimlarni yetishtirishda matnshunoslik va manbashunoslikka katta ahamiyat berishimiz kerak. Bu yo‘nalishda ko‘plab ishlar qilyapmi, lekin keyingi yillarda navoiyshunoslikda, mumtoz matnlar bilan ishlar jarayonida tasodifiy tadqiqotchilar ko‘paydi. Ular uchun Navoiy asarlari yoki matnshunoslik bo‘yicha maqola chop etish asosiy masala hisoblanadi. Malakasi yetarli emas, bu sohalarni yaxshi tushunmaydi. Matnshunoslikni arab yozuvida asoslangan eski o‘zbek tilidagi matnni kirillga o‘g‘irishdangina iborat deb tushunadigan tadqiqotchilardan nima ham kutish mumkin. Aslida, matnshunoslik ular o‘ylagandan ko‘ra keng va mohiyati chuqur soha, murakkab jarayondir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda tadqiqotchining ana shu bilimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundaygina u ko‘hna madaniyatimiz asrorini bugungi o‘quvchiga anglatishning o‘ziga xos yo‘llarini topish uchun izlanadi, qattiq mehnat qiladi.

— Metropoliiten muzeyi bilan hamkorlikdagi tadqiqotlaringizda avval ma‘lum bo‘lmagan qanday ma‘lumotlarga ega bo‘ldingiz?

— Metropoliiten muzeyi bilan hamkorlikda Alisher Navoiyning Hamid Sulaymon tomonidan o‘z vaqtida tavsif qilingan Alisher Navoiy devoni qo‘lyozmasining asl nusxasini ko‘rishga, uning tarkibi bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldim.

Mazkur devonga kiritilgan har bir g‘azal bilan qaytadan tanishib chiqdim. Mazkur devon qo‘lyozmasiga 1500-yilda, ya’ni Alisher Navoiy dunyodan o‘tishidan bir yil oldin tartib berilgan. Uni xatlot Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan. Demak, ushbu qo‘lyozmani Alisher Navoiy ko‘rgan bo‘lishi ehtimoli katta. Shuningdek, muzeyda Husayn Boyqaroning 1500-yili ko‘chirilgan devoni bilan ham tanishib chiqdim. Qo‘lyozmani Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan. Bu kichik devonni ham muallifi o‘z qo‘liga olgan, degan taxminimiz bor. Chunki Sultonali Mashhadiy Husayn Boyqaroning saroy kotibi bo‘lgan. Bundan tashqari, 1427-yilda Amir Temurning nabirasi Shohruh Mirzoning o‘g‘li Ibrohim Sulton tomonidan ko‘chirilgan Qur‘on nusxasini ham shu muzeyda ko‘rdim. Ibrohim Sulton Sherozda hukmronlik qilgan va juda yaxshi xatlot bo‘lgan. U Qur‘onni bir necha bor ko‘chirgan. Ana shu nusxalardan biri Metropoliiten muzeyida saqlanayotganidan boxabar bo‘ldik.

— Alisher Navoiy asarlarining murakkab tili o‘ziga xos va jozibali ekani haqida xorijlik tadqiqotchilar hamisha

hayrat bilan gapiradi. Biz esa bu tilni o‘rganishning qiyinligi va lug‘atlar yetishmovchiligidan noliymiz...

— Eski o‘zbek tilini o‘rganish, lug‘atlar yetishmovchiligi masalasi hal etishdagi shunchaki vositalar, xolos. O‘rta asrlar eski o‘zbek yozuvini o‘qiy olish, o‘rta asrlardagi tilni, Alisher Navoiy asarlari mohiyatini anglashni istagan odam barcha qiyinchiliklarni bartaraf etishga o‘zida zarur ma’naviy kuchni ham topadi. Qiyinchiliklar doimo mavjud bo‘ladi. Sababi, o‘rta asrda o‘tgan 4-5 asr davomida tilimizdagi so‘zlarning aksariyati yangilangan. Ma’nolari o‘zgargan. Shuning uchun ularni tushunishimiz anchagina murakkab. Ularni to‘g‘ri anglash uchun arab va fors tillarini ham yaxshi bilishimiz kerak. Lekin gap faqat tilni tushunishning o‘zidami? Agar faqat shunda bo‘lsa, Afg‘onistondan kelgan, fors tili maktablari bitirgan, o‘zbek tilini bilgan barcha talabalar allaqachon Alisher Navoiy va o‘rta asr tilini bemalol tushungan bo‘lardir. Gap til qiyinchiligida emas, mazmun va ma’no murakkabligida. Alisher Navoiy falsafiy shoir. Buyuk mutafakkir. Uning asarlarini tushunish va anglash uchun o‘sha davr adabiyoti xususiyatlarini, tasavvuf falsafasini, astronomiyani, fizikani, geografiyani, matematikani anglash zarur.

— 2023-yilda milliy ildizlarimizni anglash, fikr yuq‘oqligiga yanada ko‘proq erishish, madaniy merosimizni o‘rganish borasidagi qaysi loyihalar va nashrlardan ko‘nglingiz to‘ldi?

— Shukrki, joriy yilda quvontiradigan yutuqlarimiz bor. 2019-2022-yillarda “O‘zbekistonga oid xorijda saqlanayotgan madaniy boyliklar reyestrini yaratish, nodir qo‘lyozma asarlarning faksimilesini nashr etish” loyihasi doirasida “O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reyestri”ning 1-jildi nashr etilgandi. Unda yurimizda yashab o‘tgan o‘nlab allomaning xorijdagi yuzlab qo‘lyozma asarlari ro‘yxati keltirilgan. Hozir mazkur reyestning ikkinchi va uchinchi jildlari Madaniy meros agentligi tomonidan chop etilish arafasida. Bu jildlardan o‘nlab allomalimizning xorijdagi kutubxona va muzeylarda saqlanayotgan qo‘lyozmalariga oid ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Bu uch jild kitobni tayyorlashda falsafa fanlari doktori, professor Riq Bahodirov, tarix fanlari doktori O‘ktam Sultonov, tarix fanlari nomzodlari Dilshod Rasulov, Saidakbar Muhammadaminov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Oysara Madaliyeva, ilmiy xodimlar Sanjar G‘ulomov, Iroda Qayumova, Filipp Husnudinov, Komila Bekova kabi olimlar qatorida men ham ishtirok etganimdan, ayni savobli ishni amalga oshirishda bor bilimim va salohiyatim bilan hissamni qo‘shganimdan nihoyatda mamnunman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246.
43301 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05